

Vazirlar Kengashi Raisi Qaxraman Sariev jurnalist va blogerlar bilan bundan keyin ham hamkorlik qilishga tayyorligi bildirdi

19 dekabr kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining o'n birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyaga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi M.Kamalov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori A.Xodjaev, Oliy Majlis Senati a'zolari, tuman va shahar hokimlari va sektor rahbarlari qatnashdi.

Image not found or type unknown



Shuningdek sessiyaga «El xizmetinde» gazetasi redaktori D.Tajimuratov, «zaman.uz» sayti administratori P.Ajimuratov, bloger S.Ziyaev «uza.uz» sayti muxbiri D.Abibullaev, «kar24» sayti administratori Q.Begniyazova, «O'zbekiston 24» kanali va mahalliy televideniye muxbirlari bilan gazeta jurnallardan jurnalistlar qatnashdi.

Image not found or type unknown



Sessiya kun tartibidagi masala bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasini 2020 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari hamda kelgusi yilgi rejalar to'g'risida Vazirlar Kengashining Raisi Q.Sarievning murojaatnomasi tinglandi.

Image not found or type unknown



Sessiya yakuni bo'yicha OAV vakillari va blogerlar uchun matbuot anjumani tashkillashtirildi. Unda Vazirlar Kengashining Raisi Qaxraman Sariev va sektor rahbarlari, vazirlik va boshqarmalar rahbarlari qatnashdi.

Uch soat davom etgan matbuot anjumani savol-javoblarga boy bo'ldi. Jurnalist va blogerlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javoblar oldi. Yakunda Vazirlar Kengashining Raisi Qaxraman Sariev jurnalist va blogerlar bilan bundan keyin ham hamkorlik qilishga tayyorligi bildirdi.

